

**HAYVONLARGA NISBATAN SHAFQATSIZ MUNOSABATDA
BO'LISHNING OQIBATLARI**

Otaboyeva Z.X Babadjanova SH.K.

Urganch davlat universiteti

Vaqt o'tishi bilan insonyatning tsivilizatsiyasi ham rivojlanib bormoqda. Uning ongi, taffakuri, dunyo qarashi, madaniyati, fikirlash chegarasi, qiziqishlari, bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatlari, tabiatga, atrof – muhitga bo'lgan munosabatlari ham ancha yuqori pog'onalarga qarab odimlamoqda. Insonni, inson qiladigan, hayvonlardan ajratib turadigan hislatlari ham aynan shular jumlasidandir. Inson o'ylaydi, fikrlaydi, tahlil qiladi, ba'zan quvonadi yoki xafa bo'ladi, achinadi, hissiy faoliyati natijasida atrofida bo'layotgan voqealarga javob qaytara oladi, o'qiydi, ishlaydi, mehnat qiladi umuman olganda yetuk aql sohibi. Anashu hislatlari bilan boshqa jonli organizmlardan, hayvonlardan ajralib turadi.

Yer kurrasida hozirgi vaqtda 670 mingdan ortiq o'simliklar va 2 milliondan ortiq hayvon turlari mavjud. Taxminlarga ko'ra hali o'rganilmagan quriqlik va suv muhitlarida hayvon turlari juda ko'p bo'lishi mumkin. Biz uchun esa ular hali – hanuz sirli bolb qolmoqda. Aksariyatlarini esa, bizhar kuni ko'ramiz. Ba'zi hayvonlar hatto odamlar bilan birga yashaydi. Odamlar ulardan har xil maqsadlarda foydalanishadi. Asosan, oziq- ovqat mahsulotlari olishda, yoki ishchi kuchi, ba'zan qo'riqchi sifatida, ba'zida esa shunchaki mehr berib ularga g'amxorlik qilishadi. Hayvonlar ham ko'rsatilgan mehr etiborga nisbatan har xil kulguli yoki ta'sirli hatti – harakatlari bilan javob qaytarishadi. Hayvonot va insonlar o'rtasida bu darajada yaxshi munosabat o'rnatish, mehr tuyg'ulari borligi taqsinga sazovor.

Ammo, biz kundalik hayotimizda yoki ommaviy axborot vositalari orqali hayvonlarga vaxshiylarcha munosabatda bo'lgan odamlar haqida eshtib qolamiz yoki guvoh bo'lamiz. It va mushuklarni o'ldirayotgan bolalar yoki ularni yo'qotish

maqsadida ariqlarga, zovurlarga hayvon bolalarini cho'ktirib yuborilishi haqida ko'p eshitganmiz balki har birimiz guvoh ham bo'lganmiz, Hayvonlar ham birbirini nobud qilishadi. Buning asosiy va yagona maqsadlari faqat ozuqa sifatida yoki o'zini himoyalash maqsadida bo'lishi mumkin. Lekin, insonlarning bugungi kundagi hayvonlarni shunchaki o'ldirib yuborish holatlarini hech qanday maqsadga muvofiq deb atay olmaymiz. Bunday holatlarni aksariyatini yosh bolalar tomonidan bajarilayotganiga guvoh bolamiz. Bu holat tarbiya yo'qligidanmi yoki insoniy hislatlar, ong tavakkur mehr kabi tushunchalar rivojlanmagani dalili hisoblanadimi? Bugun shu hayvon bolalariga achinmay ularni qanday o'lishini shunchaki kuzatayotgan bolalar kelajakda qanday inson bo'lib yetishadi? Ular ham o'z zurriyotlariga qanday tarbiya beradi? Hayvonlarga, hayvonlarcha munosabatda bo'lgan bunday qo'shtirnoq ichidagi "ODAM"lardan kelajakda nimalarni kutish mumkin?

Tarbiya oiladan boshlanadi. Ota – ona farzandiga munosib tarbiya berishi uchun o'zi ham avvalo insoniy hislatlarga ega bo'lishi, tarbiyali bo'lishi zarur. Bog'cha, maktab, oliy bilim dargohlarida har doim oilaga mehrlil bolgan, tabiatga mehrlil bo'lgan insongina vatanga sodiq va chin mehr qo'ya oladigan inson bo'lib yetishadi. Kelajakda kim bo'lish, bugun qilgan ammalarimizga bog'liq. Bugunimini qay tarzda o'tkazishimiz kelajagimizga qo'ygan qadamlarimizdir. Oilasini, uyini, vatanini, tabiatni sevib, undagi go'zalliklarni ko'ra olgan, his qila olgan insonning kelajagi ham qalbi kabi pok va yorug' boladi albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
2. Gorelov A.A. Ekologiya. –M.: «Sentr», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi. Tom II Hayvonot olami, "Chinor ENK", 2003.

